



NUTQI TO'LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALARNI INKLYUZIV TA'LIMGA JALB ETISH USULLARI

PhD., v/b proff. Musayeva Nargiza Sayfullayevna
Kimyo Xalqaro Toshkent Universiteti

Fazilova Parizod Bohodir qizi
Logopediya yo'nalishi 1 bosqich magistranti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning nutqiy, kognitiv va ijtimoiy-emotsional rivojlanish xususiyatlari hisobga olingan holda ularni umumta'lim jarayoniga inklyuziv ta'lim sharoitida maxsus metodikalar, qo'llab-quvvatlovchi texnologiyalar, differensial yondashuv, logopedik dasturlar va multimodal o'qitish usullari tahlil etilgan.

Аннотация:

В данной статье проанализированы специальные методики, поддерживающие технологии, дифференцированный подход, логопедические программы и мультимодальные методы обучения детей с общим недоразвитием речи с учётом их речевых, когнитивных и социально-эмоциональных особенностей развития в условиях инклюзивного образования в процессе общего обучения.

Annotation:

This article analyzes special methodologies, supportive technologies, differentiated approaches, speech therapy programs, and multimodal teaching methods for children with delayed speech development, taking into account their speech, cognitive, and socio-emotional developmental characteristics within the conditions of inclusive education in the general learning process.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, integratsiya, logopedik yordam, multimodal o'qitish, differensial yondashuv, korreksion texnologiyalar, psixologik-pedagogik, nutq.



Ключевые слова: инклюзивное образование, интеграция, логопедическая помощь, мультимодальное обучение, дифференцированный подход, коррекционные технологии, психолого-педагогический, речи.

Keywords: inclusive education, integration, logopedic support, multimodal teaching, differentiated approach, correctional technologies, psychological-pedagogical, speech.

Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'lqinlanib so'zlamaslikning iloji yo'q. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbuslari bilan maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini tubdan yaxshilash, eng ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, har jihatdan zamonaviy tizim yaratish masalasiga e'tibor qaratmoqda. "Jismoniy va ijtimoiy xususiyatlaridan qat'i nazar, har bir bolaga ta'lim olishi uchun teng imkoniyatlarni yaratib berish juda muhimdir. Bu borada YUNESKOning alohida ehtiyojli bolalar uchun Inklyuziv ta'limni rivojlantirish platformasini joriy etish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz"-deydi Sh.M.Mirziyoyev "YUNESKO"dagi nutqida. Buyndan tashqari ta'lim va ijtimoiy siyosat bo'yicha nutqida- "Har bir bola sifatli ta'lim olish huquqiga ega. Uning jismoniy yoki psixologik holati qanday bo'lishidan qat'i nazar, ta'lim olishi uchun barcha sharoitlar yaratilishi shart." Ushbu fikr nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarni inklyuziv ta'lim jarayoniga jalb etishning davlat darajasidagi ustuvor vazifa ekanligini ko'rsatadi. "Nogironligi bo'lgan bolalarni alohida emas, umumiy ta'lim tizimida o'qitish — jamiyatning eng oliy ma'naviy mezonidir." Bu so'zlari bilan inklyuziv ta'limning nafaqat pedagogik, balki ma'naviy-ma'rifiy mazmunini ochib beradi, nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar ham tengdoshlar bilan birga o'qisa, ularning ijtimoiy moslashuvi, emotsional barqarorligi, kommunikativ ko'nikmalari tezroq shakllanadi. "Bugungi ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish — davr talabi. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek:" Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar bilan ishlashda multimodal metod, differensial o'qitish, axborot texnologiyalari, audio-vizual vositalar, o'yinli va interaktiv yondashuvlar natija beradi. Hech bir bola



taqdiriga befarq bo'lishga haqqimiz yo'q. Ular uchun barcha hududlarda inklyuziv ta'lim sharoitlari yaratish davlatning ustuvor vazifasidir" nutqi rivojlanmagan bolalarning jamiyatdagi teng huquqli ishtirokini ta'minlash — nafaqat pedagoglarning, balki butun jamiyatning vazifasi.

Zamonaviy ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvning joriy etilishi barcha bolalarning teng ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar ham ushbu jarayonning muhim subyekti bo'lib, ularning ta'lim jarayoniga jalb etilishi pedagogik, psixologik va logopedik qo'llab-quvvatlovni talab etadi. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda nutqning fonetik–fonematik, leksik–grammatik va kommunikativ jihatdan kechikishi kuzatilishi ularning o'qish faoliyatiga, ijtimoiy moslashuviga hamda bilish jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli inklyuziv ta'lim sharoitida bunday bolalarga individual yondashuv, maxsus o'qitish metodlari, korreksion texnologiyalar va o'quv muhitini moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonun, shuningdek, inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar uchun keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Ushbu maqolada nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etishning samarali usullari, zamonaviy pedagogik va logopedik texnologiyalar hamda ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ilmiy asosda yoritiladi. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish zamonaviy pedagogika, psixologiya va logopediya sohalarida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunday bolalarning nutqiy rivojlanishidagi kechikishlar ularning ijtimoiylashuvi, o'quv motivatsiyasi, bilish jarayonlari va shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois inklyuziv ta'lim muhitida ular uchun qulay sharoit yaratish, ehtiyojlariga mos metodlar va maxsus texnologiyalarni joriy etish muhim hisoblanadi.

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning rivojlanish xususiyatlari. NTRB bolalarda fonematik eshitishning sustligi, lug'at boyligining kamligi, grammatik tuzilmalardan noto'g'ri foydalanish, nutqning ravon emasligi va muloqotga kirishishdagi qiyinchiliklar kuzatiladi. Shuningdek, ularda xotira, diqqat, tafakkur, tahlil-sintez faoliyatlari ham ma'lum darajada cheklangan bo'lishi mumkin. Bu



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd December, 2025

xususiyatlarni bilish pedagog va tarbiyachilarga individual yondashuvni to'g'ri yo'lga qo'yishda yordam beradi. Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga ko'ra, nutq rivojlanishi ijtimoiy muhitga, kommunikatsiyaga va kattalar tomonidan beriladigan psixologik yordamga bevosita bog'liq. Maxsus yordam ko'rsatishda muhitni to'g'ri tashkil etish — rivojlanishning eng muhim omilidir. Bu fikr nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarni inklyuziv sinflarga qo'shishning ilmiy asosidir: bola tengdoshlari bilan muloqotda bo'lganida nutq ham, xotira ham tezroq rivojlanadi.

R.E.Levina "Nutq buzilishi faqat tilga emas, idrok, xotira va tafakkurga ham ta'sir qiladi. Shu sababli korreksion ish kompleks bo'lishi kerak". T.B. Filicheva va G.V. Chirkina — logopediyada eng ko'p qo'llaniladigan "kompleks-logopedik rivojlantirish dasturlari" mualliflari hisoblanadi. Ularning asosiy fikrlari: multimodal yondashuv (ko'rish + eshitish + harakat) — eng samarali metod, nutqni rivojlantirish bilan bir qatorda xotira, diqqat, tasavvurni paralel rivojlantirish shart, mashg'ulotlar differensial bo'lishi kerak — har bir bolaning o'z darajasiga mos. O'quv jarayonida ko'rsatmalar, predmetlar, harakat, tasvirlar va eshituv signallari birgalikda qo'llanganda xotira jarayoni ancha faollashadi.

M. Xolmatova, N. Yo'ldosheva, Z. Bozorova kabi olimlar ta'kidlaydi: NTRB bolalar bilan ishlashda milliy-psixologik yondashuv zarur. O'zbek tilining agglutinativ tuzilishi sababli xotira mashqlarida: bo'g'in tahlili, qo'shimcha qo'shish, gap tuzish, so'z o'zgartirish, alohida o'rin egallaydi.

Inklyuziv sinfda logoped, psixolog, sinf o'qituvchisi va ota-onalar bir jamoa bo'lib ishlashi eng muhim shart sifatida ko'rsatiladi. Inklyuziv muhitda qo'llaniladigan pedagogik yondashuvlar. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarni inklyuziv sinflarga jalb etishda differensial o'qitish, individual o'quv yo'nalishlari, multimodal ta'lim texnologiyalari, sensor-motor rivojlantiruvchi mashg'ulotlar va vizual materiallarga asoslangan metodlar keng qo'llaniladi. Bunday usullar bolalarning nutqiy faolligini oshiradi, o'qilgan axborotni idrok qilishni osonlashtiradi va o'z fikrini ifodalashga yordam beradi. Ko'rgazmali qurollar, piktogrammalar, grafik organayzerlar, audio-vizual materiallar va interaktiv ta'lim vositalari nutqning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Logopedlar tomonidan taklif etiladigan fonematik eshitishni



rivojlantirish o'yinlari, artikulyatsion mashqlar, so'z boyligini oshirishga qaratilgan topshiriqlar esa bolaning nutqiy qobiliyatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashning ahamiyati. Inklyuziv ta'limda nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarga yordam ko'rsatishda faqat o'qituvchining ishi yetarli emas. Psixolog, logoped va maxsus pedagogning hamkorlikdagi faoliyati muhim o'rin tutadi. Psixologik qo'llab-quvvatlash bolaning o'ziga ishonchini oshirish, ijtimoiy moslashuvini kuchaytirish, muloqotga kirishishdagi to'siqlarni kamaytirishga yordam beradi. Ota-onalar bilan muntazam hamkorlik olib borish esa pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan samarali texnologiyalar. Inklyuziv ta'lim doirasida quyidagi texnologiyalar o'zining yuqori samaradorligi bilan ajralib turadi: Multisensor o'qitish – ko'rish, eshitish, harakat va taktil sezgi orqali materialni o'zlashtirish. Kompyuter va raqamli texnologiyalar – nutq rivojlantiruvchi dasturlar, interaktiv o'yinlar, logopedik platformalar. Korreksion o'yin texnologiyalari – rolly o'yinlar, kartochkalar bilan ishlash, harakatli o'yinlar. Qo'shma faoliyat asosidagi metodlar – kichik guruhlarda ishlash, peer-tutoring, qo'llab-quvvatlovchi tengdoshlar tizimi. Ushbu texnologiyalar nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda faollikni, muloqotga bo'lgan qiziqishni va o'quv jarayonidagi ishtirokni oshiradi.

Inklyuziv ta'limning ijtimoiy natijalari. Mazkur yondashuv orqali NTRB bolalarda ijtimoiy moslashuv, o'ziga bo'lgan ishonch, tengdoshlari bilan muloqot qilish ko'nikmalari rivojlanadi. Ular jamiyat hayotiga faol kirishadi, o'z imkoniyatlarini namoyon eta boshlaydi va o'quv faoliyatidagi muvaffaqiyatlari ortadi. Bu esa umumiy holda inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi — har bir bola uchun teng, qulay va qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhitini yaratishga xizmat qiladi. Tadqiqotning ilmiy-metodik asosini maxsus pedagogika, logopediya va inklyuziv ta'limga oid nazariy manbalar tashkil etdi.

Ushbu muamolarni hal qilish uchun adabiyotlardan quyidagi ilmiy tadqiqot usullarini tahlil qildik:

1. Nazariy tahlil. O'zbekiston va xorijiy olimlarning nutq buzilishlari, inklyuziv ta'lim, maxsus pedagogika bo'yicha ilmiy adabiyotlari, davlat qonunlari va me'yoriy hujjatlari o'rganildi. Tahlil natijasida nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning psixofiziologik rivojlanishi va ta'limdagi muammolari aniqlashtirildi.



2. Kuzatish. Inklyuziv ta'lim sharoitida dars jarayonida nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning ishtiroki, muloqotga kirishish darajasi, nutqiy faolligi va o'quv jarayoniga moslashuvi kuzatildi.
3. Pedagogik eksperiment (shartli). Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar bilan multimodal va differensial o'qitish metodlari, logopedik mashg'ulotlar, fonematik eshitish va artikulyatsion o'yinlar qo'llanildi va samaradorlik baholandi.
4. Suhbat va anketa. Ota-onalar, o'qituvchilar va logopedlar bilan suhbatlar o'tkazilib, inklyuziv ta'limdagi muammolar, ehtiyojlar va amaliy tajribalar o'rganiladi.
5. Taqqoslash va umumlashtirish. Olingan natijalar ilmiy jihatdan qayta ishlanib, NTRB bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etishning eng samarali metodlari yuzasidan xulosalar chiqarildi.

Yuqoridagi tahlil natijalarini hulosa qilib ayganda shuni ko'rsatdiki, nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish kompleks yondashuvni talab qiladi. NTRB bolalarning ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishi uchun ularning nutqiy, psixologik va kognitiv xususiyatlarini inobatga olgan holda individual o'quv yo'nalishlari tuzish, multimodal o'qitish texnologiyalarini qo'llash, logoped va psixolog tomonidan tizimli korreksion mashg'ulotlar olib borish muhimdir. Shuningdek, ta'lim muassasasida qulay psixologik muhit yaratish, differensial topshiriqlar, interaktiv o'yinlar, qo'llab-quvvatlovchi tengdoshlik tizimi NTRB bolalarning ijtimoiy moslashuvi va nutqiy faolligini sezilarli darajada rivojlantiradi. Inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish o'qituvchilarning inklyuziv kompetensiyasini oshirish, ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish, logopedik va psixologik xizmatlarni kengaytirish bilan chambarchas bog'liq. Ushbu omillar uyg'unlashganda nutqi rivojlanmagan bolalar jamiyatga faol integratsiya qilinadi, o'qish motivatsiyasi ortadi va shaxs sifatida to'laqonli shakllanishi ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni.



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd December, 2025

-
3. Inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari (Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi nashrlari).
 4. Vygotskiy, L.S. Defektologiya asoslari. – Moskva, 2021.
 5. O'zbekiston logopedika va maxsus pedagogika bo'yicha ilmiy jurnallar maqolalari.